



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

№4/1

2024



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис ин ститутути

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институтути ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>Zubayda Ubaydullayevna Shodmanova</b> Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash choralarini o'rganish va takomillashtirish	73
<b>Дурбек Мирзаахмадов</b> Хизмат кўрсатиш корхоналари рақобат устунлигини таъминлаш механизмлари	78
<b>Bobir Xo'jaqul o'g'li Qilichov</b> Xizmat ko'rsatish sohasi bo'lgan sug'urta va turizm korxonalari samaradorligining qiyosiy tahlili	82
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Дилбар Хасановна Асланова, Нигина Тажиевна Юсупова</b> Оценка перспектив создания кластера в туристском секторе экономики Республики Узбекистан	87
<b>Райхона Садриддиновна Амриддинова, Сардор Олимович Рахимов</b> Сотрудничество между туроператорами и гостиницами как залог успешной продажи гостиничных номеров в Узбекистане	94
<b>Farrux Oltinboyevich Husanov</b> Turistik oqimlar va transport masalalarini modellashtirish	98
<b>Suxrob Ramazonovich Bobokalonov</b> Buxoro viloyatida joylashgan Afshona qishlog'ida turizm shaharchasini tashkil etish loyihasini amalga oshirish istiqbollari	102
<b>G'ayrat Soyibovich Raupov</b> Turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayonining konseptual modeli va diversifikatsiya matritsasi	110
<b>Shohista Bobobekovna Toyirova</b> O'zbekistonda ekologik turizmning yangi turizm yo'nalishi sifatida rivojlanish tendensiyasi	115
<b>Камилла Бахромовна Суюнова</b> Худудий брендни шакллантириш мақсадида давлат-хусусий шериклик алоқаларини ривожлантириш истиқболлари	119
<b>Latofat Tolibovna Yo'ldosheva</b> Samarqand viloyati turizm sohasining rivojlanish holati va tendensiyalari	123
<b>Матлуба Абдиманабовна Куймуратова</b> Жаҳонда туризмнинг ҳолати ва ривожланиш истиқболлари	127
<b>Kamol Sharifovich Yuldashev</b> Xalqaro tajriba asosida O'zbekistonga mustaqil turistlarni jalb qilishda viza siyosatining ta'siri	132
<b>Азиза Пирмаматовна Махмудова</b> Туризм соҳасини инновацион ривожлантириш йўллари	137
<b>Marjon Komilovna Sharifova</b> Ziyorat turizmini strategik rivojlantirish va tahlil qilish yo'llari	140
<b>КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК</b>	
<b>Умар Худайбердиев</b> Оила муносабатларидаги муаммолар ва уларнинг ечимлари	145
<b>Акрам Одилович Очилов, Жаббор Махмудович Суюнов</b> Критерии оценки деятельности субъектов предпринимательства в регионах	147
<b>Шавкат Собирович Олтаев</b> Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятини ошириш йўллари	152

**Shohista Bobobekovna Toyirova** – “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tayanch doktoranti

## O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNING YANGI TURIZM YO‘NALISHI SIFATIDA RIVOJLANISH TENDENSIYASI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimizda ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishda muhim yo‘nalishlardan hisoblangan ekologik turizmning rivojlanish holati yoritilgan. Turistlar oqimini keskin oshirishda ekologik turizmdan qay darajada samarali foydalanilayotganligi statistik ma‘lumotlar asosida dalillangan va bu borada qo‘shimcha takliflar va tavsiyalar berib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekologik turizm, turistik imkoniyatlar, muhofaza qilinadigan hududlar, ekoturistik obyektlar, ekoturistik marshrutlar, turistik imij, “Tabiatga sayohat” elektron platforma

**Kirish.** Qadim zamonlardan mamlakatimiz o‘zining geografik joylashuvi va boy tarixi sabab chet elliklarda katta qiziqish uyg‘otib kelgan. Ayniqsa, Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan shaharlari sabab bu qiziqish bugungi kunda ham yanada ortib, dunyo nigohida o‘zining boy madaniy, tarixiy merosi bilan sayyohlarni o‘ziga jalb qilmoqda. Turistlar oqimining yillar davomidagi keskin farqlari mamlakatimizda turizm sohasining keskin sur‘atlar bilan rivojlanib borayotganligidan darak beradi. Ayniqsa, turizmning qator yangi yo‘nalishlariga berilayotgan e‘tibor sohaning yanada rivoj topishiga sabab bo‘lmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili:** Ekologik turizmning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyatini O.X.Xamidov<sup>1</sup>, R.A.Islomova<sup>2</sup>, R.X.Ergashev<sup>3</sup> kabi olimlar chuqur o‘rganishgan. Qolaversa, hozirgi kunda B.G‘uzorov<sup>4</sup>, N.Quliyev, M.Latifova, D.Xudoyberdiyev, Sh.Mahmudjonov va Sh. Sharifov<sup>5</sup> kabi yosh olimlar Yangi O‘zbekistonda sohaning ushbu yo‘nalishining rivojlanishiga o‘zlarining ilmiy nazariyalari bilan hissa qo‘shishmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Ushbu maqolada induksiya va deduksiya, kuzatish, statistik tahlil, tahlil va sintez kabi tadqiqot metodologiyalaridan foydalanilgan. Maqolaning uslubiy usuli sifatida mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlaridan va statistik ma‘lumotlardan jadval ko‘rinishda foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar:** Butun jahon turizm tashkiloti Bosh assemblyasining 25-sessiyasini navqiron Samarqand shahrida o‘tkazilishi turizm sohasida birmuncha yutuqlarga erishayotganligimizdan darak beradi. Ikki yilda bir marotaba o‘tkaziladigan ushbu muhim turistik tadbirning mamlakatimizda o‘tkazilishi turizm sohasiga berilayotgan e‘tiborning yaqqol namunasidir. Hozirgi kunda mamlakatimizda 55 ta davlatga soddalashtirilgan elektron vizingning tashkil qilinganligi, so‘nggi 4 yil ichida infratuzilmaga oid 800 dan ortiq loyihalarning ishlab chiqilganligi va ushbu sohada faoliyat yurituvchi shaxslarga turli xildagi imtiyozlarning taqdim etilishi bu sohaning istiqbolini tezlashtirmoqda. Bizdagi ma‘lumotlarga qaraganda, mamlakatimizga tashrif buyurayotgan turistlar soni ikki barobarga ko‘paygan. Sohadan tushayotgan daromad esa 4 barobarga o‘sgan. 2030-yil uchun 15 million xorijlik va 25 million mahalliy turistlar oqimi prognozlashtirilgan<sup>6</sup>.

Har tomonlama sohaga qaratilayotgan e‘tibor sabab 2020-yil yurtimizga tashrif buyurgan sayyohlar soni 1 504 126 nafarni (buni pandemiyadan keyingi tiklanish davri deyishimiz mumkin) tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yil turistlar soni birmuncha (1 881 334 nafar) o‘sdi. 2022-yildan turizm sohasida hayratlanarli ko‘rsatkich qayd etilib, sayyohlar soni 5 230 780 nafarni ko‘rsatdi va bu o‘shirish keyingi yilda ham davom etib, ularning soni 6 626 301 nafarga yetdi.

<sup>1</sup> O.X.Xamidov. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Dissertatsiya. UDK338.48. 2017

<sup>2</sup> R.A.Islomova. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish muammolari. Iqtisodiyot. 2011

<sup>3</sup> R.K.Ergashev. The ways and prospects of increasing the efficiency of ecotourism in Uzbekistan. European scholar journal. 2021

<sup>4</sup> B.G‘uzorov. Samarqand viloyatida turizmning bugungi holati va kelajak istiqbollari. O‘zbekistonning top o‘n turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari. Xalqaro ilmiy amaliy anjuman. 2020

<sup>5</sup> N. Quliyev, M.Latifova, Sh.Sharifov. Problems and solutions of transition to sustainable development of tourism. Science and education. Volume3, 2022

<sup>6</sup> Oliy Majlis Qonunchilik palatasi matbuot xizmati. 2023



**1-rasm.2020-2023 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan sayyohlar oqimi**

Ushbu muhim tadbirlar asnosida yuqori tezlikda harakatlanishga qaratilgan yangi turdagi avtomobil hamda temir yo‘llarning qurilishi rejalashtirilgan. Bu kabi tadbirlaning O‘zbekistonda, ayniqsa Samarqandda tashkil etilayotganligi turizm sohasida olg‘a qadam tashlanayotganligidan va amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasi ijobiy bo‘layotganligidan darak beradi va shubhasiz, bu soha mamlakatimizni chet davlatlarga yanada yaqinlashtiradi va bu mamlakatimiz taraqqiyotida juda muhim bosqich hisoblanadi.

Mamlakatimizda turistlar oqimini ko‘paytirish uchun qulayliklar yaratish maqsadida viza rejimida, investitsiyalarni sohaga ko‘proq jalb qilish borasida, mamlakatimiz imidjini yaratish uchun olib borilayotgan ishlar bugungi kunda o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. Mamlakatimizda 93 ta xorijiy davlat fuqarolari uchun vizasiz, 56 ta mamlakat fuqarolari uchun kirish uchun elektron viza, 76 ta davlat fuqarolari uchun viza berishning soddalashtirilgan tartibi belgilab qo‘yilganligi ham xorijiy turistlarning oqimiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu kabi yengilliklar turistlarning mamlakatda ko‘proq muddatga qolishlariga ham sabab bo‘lmoqda. Shu kunga qadar o‘rtacha qolish muddati 4-5 kunni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yildan boshlab bu ko‘rsatkich 1.5 barobarga oshgan. O‘z navbatida yurtimizda qolayotgan har bir turist respublika hududida sayohat uchun ajratgan xarajatlaridan tashqari o‘rtacha sarflayotgan summasi 400 AQSh dollariga va turizm eksporti hajmi 2023-yilda 1,72 milliard dollarga yetdi.

2021- yilda sohaga oid 11,4 trillion so‘mlik 495 ta loyiha amalga oshirilgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 22,1 trillion so‘mlik 735 ta loyihaga ko‘paygan<sup>1</sup>. Ushbu loyihalar sabab har yili 20 minglab kishilar ish o‘rinlariga ega bo‘lishmoqda. Statistika agentligi bergan ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda 6,6 million chet ellik turistlar mamlakatimizga tashrif buyurishgan. Bu o‘tgan yilgi ko‘rsatkichga nisbatan 26,6% oshganligini bildiradi<sup>2</sup>.

Bunday yuqori ko‘rsatkichlar turizm sohasining yangi yo‘nalishlarini sayyohlarga taqdim etilishi bilan ham bog‘lash mumkin. So‘nggi yillarda sohaning ekoturizm, ov, safari va agroturizm yo‘nalishlariga alohida e‘tibor qaratilishi, mamlakatimizdagi alohida muhofaza qilinadigan hududlar salohiyatini chuqur o‘rganishni talab etdi va yurtimizdagi bu kabi hududlarda ekoturizmning imkoniyatlaridan kengroq foydalanishni yo‘lga qo‘yilishi borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. O‘rganishlarmizdan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, yurtimizda MEHlar maydonining kengaytirilishi ekoturizmning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Quyida yurtimizdagi MEHlar maydonining yillar davomida qay darajada o‘sib borayotganligini ko‘rsatib o‘tdik.

O‘zbekiston Respublikasi MEHlarning umumiy maydoni 2019-yil 1545,9 ming gektarni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 4472,5 ming gektarga yetdi. Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi MEHlarning maydoni ham ancha kengayganligini kuzatish

<sup>1</sup> Samarqand viloyat turizm boshqarmasi. 2022

<sup>2</sup> Samarqand viloyati statistika boshqarmasi, 2023

2-jadval

**Mamlakatimiz hududidagi MEH maydonlarining yillar kesimida o‘zgarib borish holati(ming gektar)<sup>1</sup>**

<b>Hududlar</b>	<b>2019</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>
O‘zbekiston Respublikasi	1545,9	1570,6	3457,8	4472,5
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	697,2	700,2	2589,6	2870,1
Andijon viloyati	0	0	0	0
Buxoro viloyati	16,5	16,5	26,8	26,8
Jizzax viloyati	68,5	68,5	68,3	68,3
Qashqadaryo viloyati	84,9	84,9	82,9	82,9
Navoiy viloyati	0	0	0	734,2
Namangan viloyati	0	0	0	0
Samarqand viloyati	2,4	2,4	2,4	2,4
Surxondaryo viloyati	23,8	23,8	23,8	23,8
Sirdaryo viloyati	0	0	0	0
Toshkent viloyati	642,3	642,3	642,3	642,3
Farg‘ona viloyati	0	0	0	0
Xorazm viloyati	10,3	32	21,7	21,7
Toshkent shahri	0	0	0	0

mumkin, ya’ni keltirilgan 4 yil davomida o‘rmon xo‘jaligiga qarashli yerlar maydoni 697.2 ming gektardan 2870.1 gektargacha kengaygan. Buxoro, Navoiy va Xorazm viloyatlarida ham ushbu maydonlar sezilarli tarzda oshgan. Qolgan viloyatlarda bu kabi holat kuzatilmagan (faqat 2022-yilga qadar). Agar keyingi yillarda qo‘riqxonalar maydonining kengaytirilishi va yangi milliy tabiat bog‘larining ochilishini hisobga oladigan bo‘lsak, yurtimizdagi MEHlarning maydoni yanada kengayishda davom etmoqda.

2023-2025-yillar mobaynida O‘zbekiston ekologiyasi va tabiiy resurslari atlasini ishlab chiqish va nashr ettirish, muhofaza qilinadigan hududlar maydonlarini kengaytirish doirasida “Zarafshon” milliy tabiat bog‘ini 2000 gektarga, “Surxon” va “Nurota” davlat qo‘riqxonalarini 4000-5000 gektarga kengaytirish belgilangan. Ushbu davr mobaynida “Markaziy Qizilqum”, “Pop”, “Omonqo‘ton”, “Bobotog‘” va “Yuqori To‘palang” milliy tabiat bog‘lari, “Oqtog‘-Tomdi”, “Qizilqum” davlat qo‘riqxonalarini, “Borsakelmas” va “Sudochye-Akpetki” davlat buyurtma qo‘riqxonalarining moddiy texnik bazasi yangilanishi ham rejaga kiritilgan bo‘lib, bu o‘z navbatida turizmning yangi yo‘nalishlarini yo‘lga qo‘yishda katta imkoniyat hisoblanadi va buning uchun quyidagi tadbirlarning doimiy tarzda olib borilishi yangi yo‘nalishlar uchun mustahkam zamin yaratadi. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi bilan hamkorlikda “Planting Tour” tadbirini tashkil qilish, 2023-yil yakuniga qadar ushbu hududlarda ko‘ngilochar turizm maskanlari, turizm axborot markazlari, kempinglar, tematik ovqatlanish shoxobchalari osma ko‘prik yo‘llarni o‘zida jamlagan ekoturizmni rivojlantirishning 10 yillik menejment rejalarini ishlab chiqish, “Tyan-Shan, Chotqol va Hisor tog‘ tizmalarining tabiati va dunyosi”, “Orolbo‘yi fojiasi”, “Tabiat bilan uyg‘unlik” va “Qizilqum sahrosining noyob tabiati” nomli muzeylar hamda ekspeditsiyalar tashkil etish, mazkur ishlar barobarida Hisor davlat qo‘riqxonasining “Suvtushar” sharsharasi ham ekoturistik obyekt sifatida qaralib uni tashrif buyuruvchilarga qulay sharoit yaratish, jumladan, ayvonlar, kuzatuv maydonchalari, dam olish maskanlari hamda to‘xtash joylarini tashkil etish va buning natijasida yiliga 10 000 nafar sayyoh jalb etilishi va 50dan ortiq ish o‘rinlarini yaratish ko‘zda tutilgan.

2023-yilda ekologik turizmni yanada rivojlantirish maqsadida “Ekoturizm va ovchilikni rivojlantirish departamenti”ning o‘z faoliyatini boshlashi ekoturizmning alohida yo‘nalishi sifatida sohaga xizmat qilishini anglatadi. Departamentning asosiy vazifasi ilg‘or xorijiy

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi. 2023

mamlakatlar tajribasini inobatga olib, muhofaza etiladigan hududlarda ekoturizmni to‘g‘ri tashkil qilishdir. Qisqa vaqt mobaynida departament Gruziya, Rossiya va Qozog‘istondagi muhofaza qilinadigan hududlarda tashkil etilgan ekoturistik marshrutlarni o‘rganib chiqib, “Tabiatga sayohat” milliy dasturi ustida ish olib bordi. Ushbu davr mobaynida O‘zbekistondagi 186 ta tabiiy suv havzalari o‘rganildi va elektron auksion orqali tadbirkorlarga foydalanish uchun berish yo‘lga qo‘yildi. “O‘zbekiston Respublikasida to‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 12-yanvardagi PQ-20 sonli qaroriga ko‘ra ekohududlar, ya‘ni qo‘riqxonalar, bufer zonalari, milliy tabiat bog‘lari, o‘rmonlar, ov xo‘jaliklari, pitomniklarda ekoturizmni rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Shunga binoan, 15 ta tumanda 24 dona osma dor ko‘priklar qurilishi, har bir viloyat kesimida ekoturistik marshrutlar belgilanishi zarurligi ta‘kidlangan. Ekoturizmni rivojlantirish borasida eng quvonarli holat sifatida “Tabiatga sayohat” elektron platformasining yaratilishi bo‘lib, bu platforma ustida 20 dan ortiq tajribali operatorlar ish olib borishmoqda. Uning afzallik tomoni shundan iboratki, xorijlik yoki mahalliy sayyohlar O‘zbekiston hududidagi muhofaza qilinadigan hududlar haqida, u yerda tashkil etilgan mashg‘ulotlar, tashrif markazlari va tashrif vaqtlari haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lish o‘zlarining dam olish vaqtlarini belgilab olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Qarorga ko‘ra, muhofaza qilinadigan hududlarda tadbirkorlarga ma‘lum maydonlarni 10 yil muddatga ijaraga berish imkoniyatlari mavjud. Ekoturizmning master reja va bosh reja tuzilgandan so‘ng qaysi turdagi xizmatlarni taklif etish mumkinligi rivojlantirish maqsadiga ko‘ra muvofiqligi belgilanadi. Ekologik turizm O‘zbekiston hududidagi barcha muhofaza etiladigan hududlarni qamrab olishi rejalashtirilgan. Qarorga asosan keyingi 2 yillik reja ishlab chiqilib, 38 ta xizmat turlari, 29 ta yirik suv omborlarida plyajlar tashkil etish ko‘zda tutilgan. Tabiiyki, turizmning ushbu yo‘nalishining yanada rivojlanishi ko‘p jihatdan malakali kadrlarga bog‘liq bo‘lib, ekoturizm bo‘yicha kadrlar tayyorlash va o‘qitish rejalashtirilgan bo‘lib, bu jarayon Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan moliyalashtiriladi. Cho‘l hududlarida ekoturistik mashg‘ulotlarni yo‘lga qo‘yadigan tadbirkorlarga yer va foyda solig‘ining 50 % miqdorda kamaygan soliq imtiyoziga ega bo‘ladi. Attraksionlarni o‘rnatgan tadbirkorlarning xarajatlarining bir qismi davlat tomonidan qoplab beriladi.

Farg‘ona viloyatining So‘x, Sho‘rsuv, Yozyovon tabiiy yodgorligi, Qayroqqum, Kattaturk, Namangan viloyatining Mingbuloq va Pop adirliklari tabiiy hududlarida tabiiy majmualarni tiklash va ekologik turizmni rivojlantirish uchun 100 gektardan ziyod bo‘lgan milliy tabiat bog‘ini tashkil etish jarayoni boshlangan. Ekoturistik marshrutlarning yaratilishi bu yerlarda yiliga 2000 dan ortiq sayyohlarni jalb qilish va 50 dan ortiq ish o‘rinlari yaratilishi kutilmoqda. 2023-yilda “Surxon” davlat qo‘riqxonasi haqida “Zarautsoy”, “Janubiy Ustyurt” milliy tabiat bog‘ida Sariqamish ko‘li, “Saygachiy” majmua (landshaft) buyurtma qo‘riqxonasi va Hisor davlat qo‘riqxonasi “Hazrati Sulton” ekoturizm dam olish maskanlarini tashkil etish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Ushbu maydonlarda davlat-xususiy sherikchilik asosida tadbirkorlik bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan shaxslarga berish ham nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan Markaziy Osiyoda birinchi eko universitet-Green University ning ochilishi ekologik turizmning kelajakda yanada rivojlanishi uchun zamin yarata olishi shubhasiz.

**Xulosa va takliflar.** 2023-yilda muhofaza qilinadigan hududlarga 50 mingga yaqin sayyoh tashrif buyurgan. Buning natijasida mamlakatimizda qolish muddati 1-2 kunga uzaygan. Mamlakatimizda ekologik turizmning rivojlanishining asosi yaratib bo‘lingan bo‘lib, uni rivojlanish tendensiyasi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ularga ko‘proq e‘tibor berish orqali jarayonni tezlashtirish mumkin:

- Siyosiy jihatdan sohaga tegishli me‘yori-huquqiy hujjatlarning ta‘minoti, siyosiy barqarorlik, soha vakillarining faoliyati rivoji uchun ajratiladigan subsidiya va imtiyozlarning ko‘paytirilishi;
- Iqtisodiy jihatdan sohaning infrastrukturasiga alohida e‘tibor qaratish, talab va taklif hamda xarajatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash;

- Ijtimoiy jihatdan mahalliy aholining soha faoliyatida ko ‘proq ishtirokini ta’minlash, turistlar va mahalliy aholi o ‘rtasida ekologik madaniyatni kengroq targ‘ib qilish;
- Texnologik jihatdan sohadagi ma’limotlar bazasini kengaytirish, raqamli marketingdan foydalanish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O.X.Xamidov. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Dissertatsiya. UDK338.48. 2017
2. R.A.Islomova. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish muammolari. Iqtisodiyot. 2011
3. R.K.Ergashev. The ways and prospects of increasing the efficiency of ecotourism in Uzbekistan. European scholar journal. 2021
4. B.G‘uzorov. Samarqand viloyatida turizmning bugungi holati va kelajak istiqbollari. O‘zbekistonning top o‘n turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari. Xalqaro ilmiy amaliy anjuman. 2020
5. N. Quliyev, M Latifova, Sh.Sharifov. Problems and solutions of transition to sustainable development of tourism. Science and education. Volume3, 2022
6. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi matbuot xizmati. 2023
7. Samarqand viloyat turizm boshqarmasi. 2022
8. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi, 2023
9. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi. 2023

<p><b>Ш.Тойирова</b></p> <p><b>Тенденции развития экологического туризма как нового направления туризма в Узбекистане</b></p> <p><b>Аннотация:</b> В данной статье описано состояние развития экологического туризма, который считается одним из важных направлений развития внутреннего и международного туризма в нашей стране. На основе статистических данных доказана степень эффективности использования экотуризма в целях резкого увеличения потока туристов, а также разработаны соответствующие предложения и рекомендации по данной теме.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> экологический туризм, туристические возможности, охраняемые территории, экотуристские объекты, экотуристические маршруты, туристический имидж, электронная платформа «Путешествие на природу».</p>	<p><b>Sh.Toyirova</b></p> <p><b>The development trend of ecological tourism as a new tourism direction in Uzbekistan</b></p> <p><b>Abstract:</b> This article describes the state of development of ecological tourism which is considered one of the most important directions in the development of domestic and international tourism in our country. The extent to which ecological tourism is effectively used in sharply increasing the flow of tourists has been proved on the basis of statistical data and additional suggestions and recommendations have been made in this regard.</p> <p><b>Keywords:</b> ecological tourism, tourist opportunities, protected areas, ecotourism facilities, ecotourism routes, tourist image, electronic platform "Journey to Nature".</p>
---	---

**Камилла Бахромовна Суюнова** – СамИСИ доценти в.б., PhD

**ХУДУДИЙ БРЕНДНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАҚСАДИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК АЛОҚАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ**

<p><b>Аннотация.</b> Мамлакатда туризм соҳасида олиб борилаётган юқоридаги ва шунга ўхшаш жараёнларда давлатнинг ташаббускорлик ва бошқарувчанлик, туризмни тартибга солиш ва унинг негизидаги хўжалик субъектларини самарали қўллаб-қувватлаш сиёсатининг роли катта. Ушбу мақолада туризм соҳасини ривожлантириш орқали худудий брендни юксалтиришда дунё тажрибалари айнан, давлат-хусусий шериклик имкониятларидан самарали фойдаланиш муҳимлиги асослаб берилди.</p> <p><b>Калит сўзлар:</b> туризм, худудий бренд, меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар, давлат-хусусий шериклик, иқтисодий муносабатлар, салоҳият, тадбиркорлик.</p>
--

**Кириш.** Сўнги йилларда потенциал саёҳатчиларни туризмга жалб этиш, мамлакатнинг улкан туристик салоҳиятини рўёбга чиқариш ва уни миллий даромадни шаклланти-

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 05.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.